



“KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDAGI KIYIM- KECHAK VA TAQINCHOQ OTLARINING TAHLILI

Muhammad Yasin Yoldash

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6567765>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 15-may 2022

Chop etildi: 18-may 2022

KALIT SO'ZLAR

Kiyim-kechak va taqinchoq narsa-buyum otlari, o'z qatlam narsa-buyum otlari va o'zlashgan narsa-buyum otlari.

ANNOTATSIYA

maqolada “Kecha va kunduz romanidagi kiyim-kechak va taqinchoq narsa-buyum otlari izohi berilib, tahlil qilingan. Mazkur so'zlarning qaysi tillardan kirib kelganligi va ularning o'zbek xalqining maqol va jumboqlarida aks etishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kiyim- inson tanasini tashqi muhit (ob-havo o'zgarishlari) ta'siridan asraydigan vositalar to'plamidir. estetik vazifani hamda jins, yosh va milliylik xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Kiyim tikishda turli-tuman bezak materiallardan, kashtalardan foydalaniladi.

Zargarlik (Quyumchilik) san'atida yaratiladigan bezak va ayrim ihtiyojlarni bartaraf qilish uchun xizmat qiladigan narsa-buyum otlari taqinchoqlar deyiladi. Masalan: uzuk va bilaguzuk bezak vazifasini va soat vaqtni bildirish uchun xizmat qiladi. O'zbek xalqining mashhur adibi bo'lgan Abdulhamid Cho'lpon “Kecha va kunduz” romanida shu kabi kiyim-kechak va taqinchoqlar otlarini ko'p uchratamiz ularni eng muhimlarini quydagicha tahlil qilib o'rganamsiz.

Belbog' بېل باغ belga bog'lanadigan, to'rtburchak ro'mol shkildagi gulli yoki gulsiz, chetlari tikilgan mato parchasi; qiyiq, qiyiqcha. belbog' so'zi uch marta

asarda ishlatilgan. Quyidagi misolda asl ma'mosida ishlatilgan. Misol: “Umrinisabibi kattakon belbog'ini un-guruch bilan to'lg'azib, darrov yo'lga chiqdi.” (KK,108). Belbog' so'zi Alishir Navoiy davrida bam qo'llanilgan. Misol:

“Dayr piri xidmatig'a ulki der, bel bog'ladim,

Chin degay ul vaqtKim, zynnor bo'lg'ay belbogi. (NTL 237).

Chimmat چیمت [“chashmband”] Otning dumi qilidan to'qilgan, paranji ostidan yozga tutiladigan parda. bu so'z kecha va kunduz asarida besh marta ishlatilgan. Misol: “Zebi ikki konvoyning yalang'och qilichi o'rtasida zalga kirib keldi; ustida qora barqut paranji, qora chimmat, oyog'ida qora amirkon mahsi kavish bilan sud qarshisiga kelib to'xtadi.” (KK, 250).

Chopon چاپان kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qovilgan uzun milliy kiyim; to'n. Paxtali chopon. Zarbof chopon. Chopon so'zi “Kecha va kunduz” ramonida



besh marta ishlatilgan. Misol: "Bizning johil ulamo kimning salla-choponi bo'lsa, musulmon, deydi." (KK, 185).

Do'ppi دۈپ ot turkumi hisoblanadi. Qora ko'l terisidan astar berib tikilgan bosh kiyim. Misol: bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar. Maqol. Bu so'z asarda olti marta ishlatilgan. Misol: "Ojizamiz ham do'ppi tikishga «farang» bo'lib chiqdi! Ro'zg'orning ko'p-kamlarini o'zlari bitirishadi." (KK, 12).

Guppi گۈپي qalin paxtali chopon, to'n. "Kecha va kunduz" asrida ikki marta ishlatilgan. Misol: "Mamaturdi qora sinchalog'i bilan o'ng qulog'ini bir kavlab olgach, juldur guppisini yelkasiga tashlab, uyidan chiqib ketadi: bir ozdan keyin ular ham besh-o'n kishi bo'lishib, ko'prik oldida — baqqol do'konining ayvonchasiga to'planadilar." (KK, 232).

Ro'mol رومال fors tilidan kirib kelgan ot. 1. Xotinlar boshiga o'raydigan to'rt burchak (mato). 2. Terni artish uchun cho'ntakka solib yuriladigan kichik tika. 3. Qishloq bolalari, dehqon, cho'ponlar beliga bog'lab yuradigan mato. Er-xotining urishi, doka ro'molning qurishi. Maqol. Olti marta asarda ishlatilgan. Misol: "Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'kat! Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada..." (KK, 3).

Kavish كۈش oyoq kiyimi, kovosh. Asarda sakkiz marta kavish so'zi ishlatilgan. Misol: "Ustida go'yo xonatlas qo'ylak, Xitoy tovardan kaltacha, toza beqasam kamzul, qimmatbaho shohi ro'mol, amirkon kavish-mahsi..." (KK, 65).

Mahsi محسى qo'y yoki echki tersidan tayyorlanadigan, uzun qo'njli, poshnasiz, tagcharmi yumshoq, kavush yoki kalavish bilan kiyiladigan milliy oyoq kiyimi. Asarda uch marta ishlatilgan. Misol: "Zebi ikki konvoyning yalang'och qilichi o'rtasida zalga kirib keldi; ustida qora barqut paranji, qora chimmat, oyog'ida qora amirkon mahsi kavish bilan sud qarshisiga kelib to'xtadi." (KK, 250).

Ko'ylak كۈيەك yoz(issiq) vaqtlarida ustdan kiyiladigan, yalangqavat yoqa va yengli, erkaklarniki beldan pastroqqacha, ayollarniki esa etagi uzun bo'ladigan kiyim(sovuq vaqtlarda jemper, kostyum kabilarning ostidan kiyiladi). Chit ko'ylak. Bu so'z asarda besh marta ishlatilgan. Misol: "Ustida go'yo xonatlas ko'ylak, Xitoy tovardan kaltacha, toza beqasam kamzul, qimmatbaho shohi ro'mol, amirkon kavish-mahsi..." (KK, 65).

Farang ro'mol فرنگ رومال fors tilidan kirib kelgan, yuzga tutiladigan mato; sochiq. Ayollar boshigan o'raydigan, odatda, to'rt burchak shaklidagi mato. Doka ro'mol. Asarda bu so'z bir marta qo'llanilgan. Misol: "— Uch ko'ylaklik chit, ikki belbog', Saltanatxonning bir farang ro'molini sotdirdim!" (KK, 75).

Sarpo سارپا fors tilidan o'zlashgan. ma'lum bir shaxsga yoki ko'pchilikka atab ko'pincha to'y marosimlarida yoki turli tantanalarda sovg'a uchun tayyorlanadigan yangi bosh-oyoq libos. Bu asrda ikki marta ishlatilgan. Misol: "— O'nta yaxshi yigitga yaxshi ot, yaxshi sarpo, yaxshi yarog'-aslaha berib, o'z mahkumimni bir aylansam, iloji bo'lsa, Abdisamat turadigan qishloqdan bir ot choptirib o'tib qo'ysam..." (KK, 209).

Lungi لۈنگى fors tilidan o'zlashgan. Bel va songa o'raluvchi mato parchasi. Hammomga kirganda, beldan pastni



berkitish uchun bog'lanadigan mato. Asarda bu so'z bir marta ishlatilgan. Misol: "Xodimgarning bo'z lungisi tanga dag'al-dag'al urinadi..." (KK, 161).

Ro'molcha رومالچه kichkina ro'mol, dast ro'mol. bu so'z to'rt marta asarda ishlatilgan. Misol: "Garnizon boshlig'i yonidagi ro'molchasini olib, yuzko' zlarini arta boshladi... Ikkinchisi — imom dom-la; bu kishi o'zlariningichka — hushtak singari ovozlari bilan, ixtiyorsiz «masha-ollo!..» deb yubordilar." (KK, 250).

Salla سله bosh ayniqsa namozga o'raladigan kiyim. Asarda o'n ikki marta ishlatilgan. Misol: "Salla-choponini kiyib, machitga tomon borarkan, o'yladi: «Nima uchun yo'qatgan bo'lsa?» Mingboshining uni izlatishga zohiriy bir sabab yo'q edi." (KK, 210).

To'n تون oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustaki milliy kiyim, chopon. Kimxob. Asarda besh marta qo'lanilgan. Misol: Uning kamar va to'nlarini bir-bir olib, qoziqqa ildi, ikkalasi uchun solingan joyni tuzatdi — erini sekingina olib bo-rib yotqizmoqchi bo'lardi..." (KK, 244). Misol: bir momamni yetti to'ni bor. (piyoz). Jumboq (M B J, 457) Kaltacha كالتچه o'rta osiyoda ayollning uzun, oldi ochiq, keng yengil, avra-astarli qadimiy ust kiyimi, mursak. Bir marta asarda bu so'zdan ish olingan. Misol: "Ustida go'yo xonatlas qo'ylak, Xitoy tovardan kaltacha, toza beqasam kamzul, qimmatbaho shohi ro'mol, amirkon kavish-mahsi..." (KK, 65).

To'ppi توبي do'ppi. Zar bilan tikilgan chiyroyli bosh kiyimi. Ikki marta asarda ishlatilgan. Misol: "Qurvonbibi bir nafas tinmasdan, o'zicha so'zlanar, kim yoniga borsa, Zebini maqtab gapirar, uning dutor chalishi, ashula aytishi, chok tikishi, to'ppi bosishlarini hikoya qilar, yurishturishlari, qaddi-qomati, bo'ylari, ko'zlari va

qoshlarining chiroyliligini aytib, har kimdan «Qani, mening Zebim? Qani, Zebonam?» deb so'rar; shundan so'ng ho'ngrak otib, yig'lab yuborar edi." (KK, 265).

Poyandoz پانداز fors tilidan o'zlashgan ostonaga, oyoq ostiga to'shaladigan gilan yoki ipak mato. Alohida hurmatga sazovor kishini yoki kelin, kuyovni kutib olish uchun uning yo'liga oyog'i ostiga solingan yoki solinadigan gilan, palos yoki mato. bu so'z ikki marta asarda ishlatilgan. Misol: "Kart oldida — yerda poyandoz gilamcha." (KK, 113).

Choyshab شبچاي fors tilidan o'zlashgan, O'rin-to'shak ustiga yoziladigan yalanqavat to'rt burchak mato, yopinchiq. asarda bu so'zdan sakkiz marta ish olingan. Misol: "Bir chekkada oynali, kattakon kiyim jovoni, uning ketida oppoq choyshab va qo'sh parquv bolishli kart..." (KK, 113).

Surma سورمه mendeleev daviriy sistemasining V guruhiga mansub kimyoviy element, kumushsimon oq, mo'rt metall. »O'zME« 2 tarkibida shu element bo'lgan qoramtir pardoz bo'yog'i(qosh, kipiriklarni bo'yash uchun ishlatildi). Asarda uch marta ishlatilgan. Misol: "Sen agar bodom singari boshdan-oyoq ko'zdan iborat bo'lsang, hech narsa ko'rolmaysan, ammo sevgi surmasi ila ochilgan ko'z ravshan bo'ladi." (129).

Kamar كمر fors tilidan kirib kelgan. Kiyim ustidan belga bog'lanadigan, odatda ko'ndan qilinadigan, to'qali engil tasma. Kamar so'zi yetti marta asarda ishlatilgan. Misol: "Akbarali mingboshining belida kumush kamari, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo'lmasa, hech kim uni amaldor demaydi." (KK, 52).

Tasbih تسبيح arabchadan o'zlashgan ot. 1. "Subhonallah" deyish, Xudoning nomini poklikka yod etish, duo qilish. 2. Allohning



nomini zikr etib sanaladigan munchoq shodasi. Asarda bu so'z bir marta kiritilgan. Misol: "Men bohuzur tasbihimni aylantirib yotsam bo'la beradi! So'fining o'sha akasi o'tgan yil kuzakda yana keldi." (KK, 12).

Bilag-uzuk بېلک اوزوک layollar bilakka taqadigan ziynat buyumi, taqinchoq bilaguzuk. Baqabosh bilaguzuk. Oltin bilaguzuk. asarda bir marta ishlatilgan. Misol: "Tilla bilak-uzuklar, yoqut ko'zli uzuklar, xina bilan cho'g'day lovullab turgan barmoqdar, surmali ko'zlar..." (KK, 65).

Ko'zoynak كۆزآيىنك odatdagi me'yorda ko'rish yoki ko'zni himoya qilish uchun taqiladigan, ikkita shisha ko'z o'rnatilgan maxsus asbob; oynak. Asarda bu so'z bir marta ishlatilgan. Misol: "Ko'k yopiqli uzun stol ustida sud a'zolaridan birining ko'zoynak qutichasi qolib ketgan; zal o'rtasidagi og'zi ochiq pechdan o'tinning charsillab yongani eshitiladi." (KK, 257).

Uzuk اوزوک bezak uchun barmoqqa taqiladigan, turli metallardan har xil shakl va kattalikda yasaladigan halqsimon zar-garlik, buyumi. Asarda sakkiz marta qo'llanilgan. Misol: "Birdaniga tilla uzukni

o'zi ko'zi oldiga olib bordi, u yoq-bu yog'ini aylantirib, xo'p qaragandan keyin sekingina qo'l uzatib uni Umrinisabibining sinchalag'iga kirgizib qo'ydi." (KK, 39).

Soat ساعه arab tilidan kirib kelgan aniq bir vaqt, lahza; 60 daqiqali vaqt. Sutkaning yigirma to'rttdan bir ulashigan teng vaqt shu muddatni korstuvchi vaqt o'lchovi. o'tez bir marta asarda ishlatilgan. Misol: "Uning humor bilan kuyib yongan miyasi, shoshilish poezdning o'txonasiday, tez va soat mexanizmiday, muntazam ishlardi." (KK, 158).

Yuqorida tahlil qilingan 26 ta so'zdan 17 tasini o'z qatlamga oid kiyim-kechak va taqinchoq narsa-buyum otlari tashkel beradi, qolgani esa fors va arab tillaridan o'zlashgan so'zlardir. "Kecha va kunduz" romanidagi kiyim-kechak va taqinchoq otlariga oid o'z qatlam so'zlarning ko'pligi cho'lponing ona tilga ahamiyat berishi va tilimizning kuchli ekanini ko'rsatadi, biroq bukungi sharoitda tildoshlarimizning yot so'zlarni bag'ri kenglik bilan qabul qilib tilga olib kirishi va asil so'zlarimizga e'tibor sizligi tilga katta zarar etishtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizi, Mohammad Qayum va qo'cha ug'li, temur. Ming bir Jumboq. Istonbul- qutlug'. (2019).
2. Begmatova. E, Madvaaliev. A, Mahkamova. H, Mahmudova. H, Mirzayiva. T, Tuxliva. H, umarova. E. Xudoibirganova. D, Hojiva. A. O'bek tilining izohli lug'ati (1-5jild). T. O'zbekiston mili ensiklopediyasi, davlat milli nashariyoti. 2020.
3. cho'lpon, Abdulhamid. Kecha va kunduz. O'zbekiston mili ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2018.
4. Yorqin, muhammad halim va Shafiqa yorin. Farhang o'zbeki ba forsi. Mushaxasot nashir: tihron- suxan. (1386).
5. آلتای، نورالله. اوزبیک تیلی سۆزلیگی. ناشر: جهانی همکارلیکلر ادارمسی- مالیزیا. (1386).
6. دهخدا، علی اکبر. لغتنامهی دهخدا. چاپ دوم. تهران: انتشارات دانشگاه تهران. (1377- ه).
7. ابراهیم رحیم. فرهنگ اوزبیک- دری. ناشر: انتشارات ثقافت- مزار شریف. (1396).